

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYASIDA FUQAROLARNING SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKARINING TA'MINLANISHI HAMDA KAFOLATLANISHI

*Qodirqulova Mohichehra Zafarjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz hayotidagi eng muhim voqealardan biri bo'lgan 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonunida mustahkamlangan va kafolatlangan respublikamiz fuqarolarining shaxsiy huquq va erkinliklari, ushbu huquqlarning amaliy ta'minlashi va uning natijalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: fuqaro, huquq, konstitutsiya, erkinlik, majburiyat, davlat siyosati, qonun, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, inson qadri, shaxsiy huquq, inson huquqlarining kafolatlanishi.

Mustaqil demokratik yo'ldan dadil odimlayotgan O'zbekistonning eng ulug' maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlari ko'zlangan islohotlarni amalga oshirishga qaratilgani bilan e'tiborlidir. Bunday demokratik jamiyatda, avvalo, inson huquqlari va erkinliklarining bosh qonunda mustahkamlab qo'yilishi so'ngra ularning kafolatlanishi muhimdir. Avvalo, konstitutsiyaning dastlabki moddasida: O'zbekiston boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, deya e'tirof etilgandir.

Mamlakatimizning yangi qabul qilingan konstitutsiyasida tarixda birinchi marta quyidagilar mustahkamlandi:

- har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega ekanligi va hech kimga uning rozilgisiz belgilanmagan majburiyat yuklatish mumkin emasligi;

- insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni va aholining sog'ligini, ijtimoiy ahloqni va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarining himoya qilish, jamoat xavfsizligini va jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur doiradagina cheklanish mumkin va boshqalar.

Konstitutsiyada har bir fuqaroning shaxsiy huquq va erkinliklari alohida ta'kidlangan va undagi barcha normalar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi normalariga juda mos keladi. Inson huquqlari bu insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohadagi imkoniyatlari hamda da'volarini tavsiflovchi tushunchadir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jumladan, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy

huquqlari, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari ham belgilab berilgan (19-52-moddalar).

O'zbekistonda Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, shaxsi, e'tiqodi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar (19-modda). Jumladan, yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Kishi joniga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir (25-modda). Har kim erkinlik va shaxsiy dahlsizlik huquqiga ega, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi, qynoqqa solinishi, shafqatsiz yoki inson qadrini kamsituvchi boshqa tarzdagi holda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas (26-modda). Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotga aralashishlardan himoyalananish va turar joy daxlsizligi huquqiga; fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga egadir. Shuning bilan birga jinoyat sodir etishda gumonlanuvchiga, ayblanuvchiga hamda jinoyatchiga ham alohida huquqlar berildi. Tergov jarayoniga oid barcha noaniqliklar gumonlanuvchi va ayblanuvchining foydasiga hal etiladigan bo'ldi. (27-29-moddalar). Bularning barchasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda insonparvarlik tamoyillarining aks etishini ko'rsatmoqda. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi (31-modda).

Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlatning asosiy belgi va mezonlaridan biridir. Inson huquqlarini nisbiy va mutlaq Inson huquqlariga bo'lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qynoqlarga, zo'ravonlikka, inson sha'nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizlik huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, o'z sha'nini va yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga etiqod qilish huquqi, shuningdek, Sud tomonidan himoya qilinish huquqi va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog'liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq Inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan barcha Inson huquqlari nisbiy bo'lib, favqulodda yoki harbiy holatlar tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to'xtatib qo'yilishi mumkin.

Bosh qomusimizda avvalgi konstitutsiyamizdan farqli o'laroq ilm-ziyo tarqatguvchilar ustoz-muallimlarning huquq va manfaatlari munosib ravishda mustahkamlanib ularning maqomi yuksak darajada oshirildi(52-modda). Yana bir muhim hodisa konstitutsiyamizga alohida " Advokatura" bobi qo'shildi hamda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan advokatlarning huquqlari va kasbiy faoliyatini bosh qomusimiz o'z himoyasiga oldi(141-142).

Demokratik davlatlarda mutlaq Inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to'xtatishga yoki bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asosidir. Konstitutsiya barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslangan holda o‘zgalarning qonuniy manfaatlarini, huquq va erkinliklarini buzish hisobiga o‘z huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishga yo‘l qo‘ymaslikka, ijtimoiy adolat va hamjihatlikni ta’minlashga qaratilgandir. O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari va erkinliklarining to‘liq amalga oshirilishiga kafolat beriladi. O‘z navbatida respublika hududida yashovchi shaxslar konstitutsiyada ta’kidlangan huquq va erkinliklarga, xalqaro huquq va me’yorlarga rioya etishlari zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi .1948-yil.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.1996-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2023. – 35-b.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Inson huquqlari bo‘yicha vakil” to‘g‘risidagi Qonuni. 1996-yil.
6. Akbarjonovich M. A. AN ANALYTICAL APPROACH TO THE ELIMINATION OF CORRUPTION //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – T. 11. – №. 4. – C. 2045-2047.
7. Akbarjonovich M. A. Historical Analysis of Population Migration //International Journal on Orange Technologies. – 2023. – T. 5. – №. 4. – C. 68-70.